



SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHNING KREATIV USULLARIDAN FOYDALANISH

¹Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'gli

¹Termiz davlat pedagogika institutining
Ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi 2-bosqich magistranti
+998937680867

firuzaxon78@gmail.com,

²R.B. Mustafaqulov

²Termiz davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti f.f.n.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7287164>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2022

Accepted: 01st November 2022

Online: 04th November 2022

KEY WORDS

Savod, savod o'rgatish, "Alifbe", ona tili va o'qish savodxonligi o'qitish metodikasi, harf, tovush, dunyoqarash, ongli o'qish, ifodali o'qish.

Prezidentimiz Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritib, "Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamlil islohotlarimizning yaqqol ifodasidir" [1] Mamlakatimizda boshlang'ich ta'limda o'qitishni sifat jihatdan jadal rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni, nutq va tafakkurini rivojlantirish, yuksak

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etayotgan davrda savod o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishning kreativ usullari, o'qish turlari va didaktik vositalardan foydalanilgan.

ma'naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog'lom avlodni voyaga etkazishning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Hozirgi yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab etadi. 2020-2021-o'quv yilidan amalga kiritilayotgan Milliy o'quv dasturi, uning mazmun-mohiyati, dastur asosida yaratilayotgan yangi avlod darsliklarining o'ziga xosliklari hamda ular haqida xorijiy ekspertlar qatnashganligi va keng omma oldida batafsil muhokama etilishi ham eski usullardan voz kechishni taqazo etmoqda. Mana shu zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda ta'lim sifatini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb maslasiga aylanib ulgurdi. Ushbu maqolada



savod o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishning kreativ usullari keltirilgan. [3]

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliliigi bilan alohida o'rin tutadi. Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgarlar nutqini eshitish, diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim. Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. Harf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: A. O'qituvchi *asal* rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini — so'zni aytadi. O'qituvchi *a* tovushini cho'zib (a-a-s-a-a-l) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar *a* tovushini aytgach,

uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. *A* tovushli so'zlar *a* o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng *a* harfi kesma harfdan yoki rasmlil alifbodan ko'rsatiladi. Bunda *a* harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmlil alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi. O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lishi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi. Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi. [7]

Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lish, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng birgalikda ovoz chiqarib o'qish, yakka-yakka o'qish, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi. Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni xattaxtada bo'g'inlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi. [2]



Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi. O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi. "Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O'quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to'xtam (pauza) qilish o'rinlarini belgilab olishi zarur. Bunda ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish nam unasini ko'rsatishi katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli bo'ladi. [3]

Interfaol metodlardan foydalanish nafaqat nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash balki o'quvchilar nutqini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. "Nutq madaniyatini shakllantirish, milliy va xalqaro, shuningdek, pedagogik texnologiya sohasida interfaollikni qo'llash, elektron vositalar, slaydlar, innovatsion klaster usullaridan foydalanish, pedagogik fikr va olimlarning g'oyalari, muammolari bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish" zarur. [12]

O'qitish o'qilganlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina matndagi asosiy fikr, ilgari surilayotgan g'oya o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi, so'z va matnlar yod olingan taqdirda ham o'quvchiniki bo'lib qoladi. Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga

o'rgatish juda muhim. Ongli o'qitish uchun esa har bir darsda o'qituvchi o'quvchilarni tasavvurini kengaytirib borishi hamda hayotiy savollar bilan murojaat qilishi zarur. Chunki, savod o'rgatish jarayonida bola o'qiganini emas amalda ko'rganini eslab qoladi va shu haqida fikr yurita oladi. Maslan ongli o'qitishda quydagicha topshiriqlar bilan murojaat qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Rasmlar orqali hikoya tuzish. Bunda o'quvchilar hayotlari davomida o'zlari ko'rgan predmetlarga atab hikoya tuzishadi.
2. Predmetli ertaklarni ko'proq o'qitish va shu yuzasidan savol-javob qilish.

Har bir berilgan so'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga — ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat "Alifbe" dan yoki harf terish xattaxtasidan, o'qiladigan topishmoqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, "Boychechaklar qachon ochiladi?" (harf terish xattaxtasida: Bahorda ochiladi). Mana shu kabi tayyorlov mashg'ulotlari o'qishning yuqori darajada ongli bo'lishini ta'minlaydi. Ongli o'qishni ifodali o'qishdan ajratib bo'lmaydi. Ammo analitik o'qishning birinchi bosqichida ifodali o'qish mumkin emas, chunki bolalar so'zda urg'uli bo'g'inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so'roq ohangini, hatto, orfoepik to'g'ri o'qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o'qish bosqichida so'zni yaxlit, orfoepik qayta o'qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o'qish



to'g'ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o'qishga o'rgatibgina qolmay, o'qishning ongli bo'lishiga ham yordam beradi. O'qishning ongliligini va ta'sirchanligini ta'minlash uchun matn mazmunini o'quvchilarning ko'rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog'lash lozim. Shunda o'quvchida o'qishga, o'rganishga qiziqish ortadi. Ongli o'zlashtirishni amalga oshirishda lug'at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning ma'nosi ustida to'xtalish, birinchidan, fikrni oydinlashtirsa, ikkinchi tomondan matn tushunishga ham yordam beradi. She'r, tez aytish, topishmoq, qo'shiq, maqol, hikmatli so'zlardan o'qitish, yod oldirish ham o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshiradi, o'qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. [2]

O'qituvchining savoli – o'quvchilar bilish qobiliyatlarini boshqarish vositasi. Savollar qaysi ma'noda yoki vaziyatda qo'llanishiga qarab, o'quvchilarni ilgari lab borishga, bilimlar sari intilishga undaydi, ularni fikrlash darajasini oshiradi. [11]

Yangi bo'g'in, so'z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so'zni xattaxtada va daftarda "yasash" ning ahamiyati juda katta. O'qish uchun xilma-xil bosma materiallar qanchalik ko'p bo'lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o'qish shunchalik ongli, qiziqarli bo'ladi. Bola endigina o'qiy boshlagan bosqichda ularni qatorni yo'qotmaslikka, shuningdek, so'zdagi keyingi harfni, keyingi so'zni yo'qotmaslikka o'rgatish juda muhimdir. Bu vazifani savod o'rgatishning boshlang'ich bosqichida xatcho'p (o'qiyotgan betni belgilab qo'yish uchun kitob ichiga solib qo'yiladigan qog'oz yoki lentacha) va tayoqcha bajaradi. O'qilayotgan qatorni kuzatib borish

ko'nikmasiga sinf o'quvchilaridan o'rtog'ining xatosini to'g'rilashni talab qilish yo'li bilan ham erishiladi. [6]

O'quvchilar bu talabni qiziqib bajaradilar, shu yo'l bilan ularning darsga, o'qishga e'tibori jalb etiladi. Kreativ fikr o'qitishning samarali bo'lishi uchun didaktik o'yinlardan ham foydalanilish ham zarur. Didaktik o'yindan foydalanish bir tomondan bolani amaliyot bilan tanishtirsa, ikkinchi tomondan ularni yanada darsga qiziqishini orttiradi. Quyidagicha didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin:

"Kim chaqqon?" o'yini. Bunda o'quvchilarga yoshlariga mos rasmlar aks ettirilgan topshiriqlar beriladi. Masalan, topshiriqda "Anor" rasmi ko'rsatilgan bo'lsin. Rasmning tagida "Anor" kabi harflari tushurib qoldirilgan so'z yoziladi. O'quvchi mevaga qarab uning nomini aytadi va tushurib qoldirilgan harfni yozadi. Kim tez va to'g'ri bajarsa g'oliblikni qo'lga kiritadi.

Ta'lim – tarbiya sohasidagi asosiy masalalardan biri – o'quvchilarda ijodiy fikrlashni tarbiyalash – ularni komil inson bo'lib ulg'ayishlarini ta'minlovchi mezonlardan biridir. Bundan tashqari, o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqatli, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, axloqli, vijdonli va irodali inson bo'lib yetishishlaridagi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. [13]

"So'zlardagi birinchi tovushni aniqlang" o'yini. Bolalar kartani olishadi. O'qituvchi unli, undosh tovushlar, harf va tovush tushunchalariga aniqlik kiritadi. O'qituvchi harfning ketma ketligini quyidagicha tushuntiradi:

1. So'zlardagi birinchi tovushni eshitish orqali aniqlang.



2. Doirada ta'kidlangan tovushni bildiruvchi harfni yozing: agar tovush unli bo'lsa - qizil qalam, undosh undosh bo'lsa - ko'k, undosh yumshoq bo'lsa - yashil qalam bilan yozing.

3. Xuddi shu tovush bilan boshlangan so'zlar sonini hisoblang, harfning ostidagi tegishli raqamni yozing.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki o'quvchilarni o'qishga o'rgatish, ularning o'qish sur'atini oshirish, ifodali va ongli o'qish elementlarini shakllantirish, tarbiyalash o'qish darslarining muhim vazifalari hisoblanadi. Mana shu muhim vazifani amalga oshirishni savod o'rgatish jarayonlaridan boshlaboq amalga oshirish zarur.

Bolalarning o'qish savodxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqdirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob

bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Maktab o'qituvchilari bilan hamkorlikda kutubxonalarga kitob o'qish daqiqalarini tashkil etish, kutubxonachilar bilan mustahkam aloqa o'rnatishi katta ahamiyatga egadir. [10]

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish nafaqat ona tili va o'qish savodxonligi, balki barcha fanlarda ham o'qituvchilarning alohida e'tibor qaratishi, oila-maktab-kutubxona hamkorligini samarali tashkil etish, xorijiy mamlakat olimlarining samarali usul va matodlaridan tizimli foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Darsni to'g'ri tashkillashtirgan holda o'quvchilarni savod o'rgatish jarayonlaridan boshlaboq kreativ usullardan foydalanish orqali ifodali va ravon o'qishga o'rgatib borilsa, kelgusi sinflarda bolaning nutq sintezida va aqliy imkoniyatlarida muammo yuzaga kelmaydi hamda har bir bola zamon talabiga mos kadr bo'lib ulg'ayadi.

References:

1. Sh.M. Mirziyoev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Xalqaro kongress markazida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X s'ezdi saylovoldi dasturi – Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'ruzasi 9.09.2021.
2. Umumiy o'rta ta'limning MILLIY O'QUV DASTURI. 2022-yil.
3. Qosimova.K, S. Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariev. "Ona tili o'qitish metodikasi" - T.: «NOShIR», - 2009. 352 b.
4. Hamdamova. M, "Yoshlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmining pedagogik-psixologik asoslari", Toshkent 2007.
5. T. G'afforova va boshq. O'qish kitobi (I-sinf uchun darslik). — T.: "Sharq", 2007.
6. T. G'afforova va boshq. 1-sinfda o'qish darslari. — T.: 2003
7. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o'rgatish metodikasi. - T.: "O'qituvchi11, 1996.



8. J. G'. Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: "O'qituvchi", 2004.
9. Хаитова Ф. А. Хорijiy Mamlakatlarning Boshlang'ich Sinflarda Kreativ O'qish Madaniyatini Shakllantirish Tajribasi //Иновации В Педагогике И Психологии. – 2022. – Т. 5. – №. 1.
10. Хаитова Ф. А. Maktabda o'quvchilarning o'qish madaniyatini shakllantirishning samarali usullari //Иновации в педагогике и психологии. – 2021. – Т. 4. – №. 6.
11. Абдуллаевна Х. Ф. Болани китобхонликка ўргатишда оиланинг ўрни //Педагогика ва психологияда инновациялар. – 2020. – Т. 11. – №. 3.
12. Хайитова Ф. А. Игра как практика развития на начальном этапе обучения //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 25. – С. 114-116.
13. Хайитова, Ф. А. (2021). Технологии креативного подхода к развитию речи младших школьников. In Иновации в науке, обществе, образовании (pp. 130-149)